



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI  
UNIVERSITETI**

# **GLOBAL TA’LIM VA MILLIY METODIKA TARAQQIYOTI**

**mavzusidagi VIII an’anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani  
MATERIALLARI**

**Toshkent  
2024-yil, 26-aprel**

|                                                                                                                                                                         |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Maxfuza Abdialimova.</b> Qozoqboy Yo’ldoshning badiiy asarga yondashish tamoyillari                                                                                  | 233 |
| <b>Ra’no Xoliqova.</b> 5–6-sinf o’quvchilarining kreativ fikrlash ko’nikmalarini o’quv topshiriqlari asosida rivojlantirish                                             | 238 |
| <b>Zaynab Kurbanova.</b> Leksikologiya va frazeologiyaga oid mavzularni o’qitishda nutqni rivojlantirish usullari                                                       | 242 |
| <b>Didora Ibragimova, Guljahon Muxtorova.</b> O’quvchilarda o’qish savodxonligi va funksional savodxonlikni shakllantirish omillari                                     | 245 |
| <b>Dildora Ibragimova, Nilufar Ismatova.</b> O’qish savodxonligi darslarida boshlang’ich sinf o’quvchilarining badiiy asarlarni sharhlash ko’nikmalarini shakllantirish | 247 |
| <b>Bashorat Muminova.</b> Ish qog’ozining asosiy matni ustida ishlash                                                                                                   | 249 |
| <b>Intizor Jumaniyazova.</b> Fardlar tahlili orqali o’quvchilar tanqidiy tafakkurini rivojlantirish                                                                     | 252 |
| <b>Mirzabek Xolyorov.</b> Abdulla Oripov – tabiat musavviri                                                                                                             | 257 |
| <b>Husniddin Qoraboyev.</b> Boshlang’ich sinf o’qish savodxonligi darslaridan uy vazifalarini samarali tashkil etishning ahamiyati                                      | 259 |
| <b>Mahliyo Elboyeva.</b> Maktab ta’limida bolalar adabiyoti namunalarini o’qitishda psixologik metodlardan foydalanish imkoniyatlari                                    | 261 |
| <b>Shoxista Mahmudova.</b> Biografik talqinning ijodkor obrazini o’rganishdagi o’rni                                                                                    | 266 |
| <b>Nargiza Ergasheva.</b> Adabiyot darslarida loyiha ishi: Kitob treylari (“Book trailer”)                                                                              | 270 |
| <b>Nilufar Kadirova.</b> O’quvchilar tanqidiy tafakkurining shakllanishida “aydos-konspekt” usulining o’rni                                                             | 272 |
| <b>Maxmuda Yuldasheva.</b> Adabiy ta’limda lirik, epik va dramatik asarlarni o’qitishda evristik yondashuvdan foydalanish amaliyoti                                     | 278 |
| <b>Ozoda Shukurboyeva.</b> O’quvchilarda badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirishning nazariy asoslari                                                  | 285 |
| <b>Madina Abduqodirova.</b> Kognitivizm va uning adabiy ta’limga tatbiqi                                                                                                | 287 |
| <b>Nilufar Turg’unova.</b> Faoliyat mazmuniga ko’ra o’quv loyihalarining turlari                                                                                        | 294 |
| <b>Gulshoda Ruziyeva.</b> Zamonaviy tilshunoslikning sotsioprogramatik xususiyatlari                                                                                    | 296 |
| <b>Nodirbek Xasanboyev.</b> Oliy adabiy ta’limda masofadan o’qitish muammo sifatida                                                                                     | 298 |
| <b>Madina Axmadjanova.</b> Ona tilini o’qitish muammolari (Turkiyada ona tili ta’limini o’qitish misolida)                                                              | 301 |
| <b>Malika Axmadjanova.</b> Til o’qitishda lug’at boyligini darajalash tamoyillari                                                                                       | 304 |
| <b>Laylo Xursanova.</b> Xorijiy tilini o’qitishda mediata’lim vositalaridan foydalanish holati                                                                          | 307 |
| <b>Shaxnoza To’rayeva.</b> 5-sinf “Ona tili” darsligida grammatik savodxonlikni shakllantiruvchi o’quv topshiriqlari tahlili                                            | 310 |
| <b>Zebiniso Davronova.</b> Ona tili darslarida yozma nutqni rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari                                                              | 312 |

2. Qissada yuz bergan voqealar rivojini Oqbo'yin va u bilan sodir bo'lgan dastlabki voqea asosida tushuntiring.

3. Mallaga xos bo'lgan xususiyatlardan uning xarakteriga xos jihatlarni asarda berilgan voqealar asosida tushuntiring.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: 2020.
2. Yo'ldosh Q., Yo'ldosh M. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. – Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2022.
3. Yo'ldosh Q., Yo'ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: 2006.
4. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
5. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Navoiy universiteti, 2008.
6. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
7. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati – Toshkent: Akadem-nashr, 2010.

<https://learning-theories.com/cognitivism.html>

[https://en.wikipedia.org/wiki/M.\\_Devid\\_Merrill](https://en.wikipedia.org/wiki/M._Devid_Merrill)

<https://www.mybrainisopen.net/component-display-theory/>

[https://mDevidmerrill.files.wordpress.com/2019/04/cdt\\_chapter7-1.pdf](https://mDevidmerrill.files.wordpress.com/2019/04/cdt_chapter7-1.pdf)

<https://conjointly.com/kb/types-of-relationships/>

## FAOLIYAT MAZMUNIGA KO'RA O'QUV LOYIHALARINING TURLARI

**Nilufar Turg'unova**

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU tayanch doktoranti

[nilufarturgunova20@gmail.com](mailto:nilufarturgunova20@gmail.com)

Annotatsiya: Mazkur tezisda o'quv loyihalarining tasniflanishiga oid turli qarashlar, faoliyat mazmuniga ko'ra o'quv loyihalarining turlari haqidagi fikrlar yoritilgan. Turli yo'nalishdagi o'quv loyihalarining maqsadi, o'ziga xos xususiyatlari, o'xshash va farqli jihatlari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: o'quv loyihasi, loyiha turlari, konstruktiv, estetik, muammoviy, tadqiqotchilik, ijodiy, rolli-o'yinli, axborot beruvchi, amaliy loyiha.

Annotation: Different views on the classification of educational projects, opinions about the types of educational projects according to the content of the activity described in this thesis. Information is given about the purpose, specific characteristics, similar and different aspects of educational projects in different directions.

Key words: educational project, project types, constructive, aesthetic, problematic, research, creative, role-playing, informative, practical project.

Ta'limda eng samarali texnologiyalardan biri hisoblangan loyiha texnologiyasi o'quvchida mustaqil va tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, izlanuvchanlik ko'nikmalarini shakllantirishda katta yordam beradi. O'qituvchi ta'lim jarayonida mazkur texnologiyani qo'llab ijobiy natijaga erishishi uchun, loyiha texnologiyasidan to'g'ri va o'z o'rnida foydalanishi, o'quv loyihalarining turlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'lish lozim.

Adabiyotlarda o'quv loyiholari faoliyat turiga, murakkabligiga, davomiyligiga, tashkilotchilar soniga ko'ra tasniflanadi. Faoliyat turiga ko'ra tasniflanish o'quv loyihalarining asosiy xususiyatlarini ochib beruvchi jihat bo'lib, bunda loyihani bajarishda qaysi faoliyat turining ustuvorligiga ahamiyat beriladi. Bir qator pedagog va metodist olimlar mazkur yo'nalish bo'yicha o'quv loyihalarini turlicha tasnif qilganlar.

Ilk bor loyiha texnologiyasining ilmiy-nazariy asoslarini yoritib bergan olim X.Kilpatrik o'zining "Loyiha metodi" kitobida maktab loyihalarini 4 ta turga bo'lib ko'rsatadi va qisqacha izoh berib o'tadi

[Kilpatrik, 1918: 38-39]:

1. Konstruktiv loyiha. Maqsad qandaydir g’oya yoki rejani amalga oshirishga qaratilgan bo’adi. Masalan: qayiq yasash, xat yozish, pyessa ijro etish.

2. Estetik loyiha yoki iste’molchilik loyihasi. Bunga qiziqarli ertak o’qish, simfoniya ijrosini tinglash, tasviriy san’at asarini tomosha qilish (uni tushungan holda) kabi mashg’ulotlarni kiritish mumkin. Lekin bu jarayonni loyiha deb hisoblash uchun unga aniq maqsad qo’yilgan bo’lishi kerak.

3. Muammoviy loyiha. Bunda berilgan vazifani hal qilish uchun intellektual qiyinchiliklarni yengish talab qilinadi.

4. Loyiha-mashg’ulot. Bilim, ko’nikma yoki tajribalarni o’zlashtirishga qaratilgan bo’lib, bunda shaxs o’z ta’lim jarayonini ma’lum bir nuqtaga olib boradi.

Yetti yildan so’ng X.Kilpatrik “Metod asoslari” (1925) kitobida o’quv loyihalarining tipologiyasini boshqacharoq talqin qiladi, lekin 4 ta turni saqlab qoladi [Kornetov, 2020, 24]:

Birinchi tur – ishlab chiqarish loyihalari muayyan mahsulot yaratishga asoslangan bo’lib, murakabligiga ko’ra turli darajada bo’lishi mumkin: qumdan yasaladigan bolalar uychasidan tortib milliy yoki jahon miqyosidagi loyihagacha. Ikkinchi tur – iste’molchilik loyihasi. Bunda maqsad ko’ngilochar mashg’ulot orqali muayyan bilimga ega bo’lishdir. Loyiha ishtirokchisi ishlab chiqarish jarayonida passiv, lekin iste’mol jarayonida aktiv bo’ladi. Kilpatrik iste’molchi loyihani shunday tushuntiradi: rassom rasm chizgan holda ishlab chiqarish loyihagini amalga oshirdi, boshqalar rasmni ko’rib tomosha qilishlari va zavqlangan holda san’at asarini iste’molchisiga aylanadilar. Uchinch tur – muammoni yechishga qaratilgan loyiha. Maqsad muammoni hal etish yoki qandaydir intellektual qiyinchilikni yechishdan iborat bo’ladi. Kilpatrikning fikricha, tarixan mazkur loyiha turi birinchi – ishlab chiqarishga qaratilgan loyihadan o’sib chiqqan bo’lishi mumkin, chunki o’quv ishlab chiqarish jarayonida ham turli muammolarni hal etish talab qilinadi. Lekin ularning farqi shundaki, uchinchi turdagi loyiha muammo asosiga qurilsa, birinchi turdagi loyihada esa muammo tasodifiy element bo’lishi mumkin. To’rtinchi turdagi loyihalar maxsus ko’nikmalarni egallashga qaratilgan bo’ladi, bu turdagi loyihani ixtisoslik loyihasi deb atash mumkin (masalan, suzish yoki kuylashni o’rganish).

Kilpatrik o’quv loyihalarini tasniflashda asosiy e’tiborni o’quvchi qiziqishlari va maqsadning aniq qo’yilganligiga qaratadi. Ya’ni uning fikricha, loyihalar, asosan, o’quvchilarning qiziqishlari ustiga quriladi. Lekin bugungi kunda loyihaga asoslangan topshiriqlar o’quv dasturi, dars mavzusi, maqsadi, o’quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda qo’llanilishi barchaga ma’lum.

1910-yilda amerikalik professor Kollings Missuri shtatidagi maktabda loyiha asosida o’qitish bo’yicha tajriba o’tkazadi. Tajriba davomida u loyihalarni to’rt guruhga bo’ladi: o’yin, ekskursiya, hikoya va konstruktiv loyiha.

O’tgan asrning 90-yillaridan boshlab loyiha texnologiyasiga yana-da ko’proq e’tibor qaratila boshlandi. Rus olimlaridan S.V.Abramova, V.V.Guzeyeva, I.I.Ilyasova, V.M.Monaxova va boshqalar loyihaviy ta’limning nazariy asoslari bo’yicha tadqiqot olib bordilar. Mazkur texnologiyani atroflicha tadqiq qilgan rus pedagogi Y.S.Polat faoliyat turiga ko’ra o’quv loyihalarini quyidagi turlarga ajratadi [Polat, 2002: 71-72]:

– Tadqiqotchilikka asoslangan loyiha – bunday loyihalar puxta o’ylangan struktura, aniq maqsad, dolzarb va ijtimoiy ahamiyatga ega muammo bo’lishini, eksperiment o’tkazish va natijalarni tahlil qilish uchun mos metodlar tanlanishini talab qiladi.

– Ijodiy loyiha – bu loyihani tayyorlash jarayonida jamoa ishtirokchilarining hamkorlikdagi faoliyatlari aniq belgilangan struktura asosida amalga oshirilmaydi, ishtirokchilar qiziqishi hisobga olinadi. Bunda e’tibor ko’proq ishning natijasiga qaratiladi. Videofilm ssenariysi, bayram dasturi, reportaj, gazeta, albom tayyorlash kabilarni ijodiy loyihaga kiritish mumkin.

– Rolli-o’yinli loyiha – bunday loyihalarda ham ijodiylik yuqori bo’ladi, lekin ishtirokchilar belgilangan xarakter, rolni ijro etib berishlari bilan ajralib turadi. Bu adabiy personajlar yoki jamiyatdagi turli vaziyatlarni ochib beruvchi o’ylab topilgan qahramonlar bo’lishi mumkin.

– Axborot beruvchi loyiha – bu turdagi loyiha muayyan obyekt, tushuncha haqida ma’lumot yig’ish, tahlil qilish, umumlashtirishga qaratilgan bo’lib, ishning natijasi maqola, referat, doklad, taqdimot ko’rinishida bo’lishi mumkin.

– Amaliyotga yo'naltirilgan (amaliy) loyiha – bu loyiha boshidanoq natijalarning aniq belgilanishi bilan ajralib turadi. Faoliyat bevosita ishtirokchilarning ijtimoiy manfaatlariga yo'naltirilgan bo'ladi. Ishning natijasi turli fan sohalaridagi (ekologiya, biologiya, tarix, geografiya va b.) tadqiqotlar natijalari asosida tuzilgan hujjat, harakatlar dasturi, qonun loyihasi, lug'at, maktab bog'i loyihasi va boshqa ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Bunday loyihalarda turida tizimli ishlash, har bir ishtirokchining vazifalari aniq belgilanishi, individual va jamoaviy ishlarni to'g'ri tashkillashtirish, faqatgina natijani emas, uni amaliyotga tatbiq etish usullarini ham taqdim qilish muhimdir.

Milliy metodikamizda ham ta'limni samarali tashkil etishga yordam beruvchi metod va texnologiyalar bo'yicha juda ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, so'nggi yillarda o'quvchilarning o'quv loyihaviy faoliyatini tashkil etish yuzasidan bir qator ishlar e'lon qilindi. O'zbek olimlaridan Z.Sharopova o'zining "Ta'lim texnologiyalari" kitobida loyiha texnologiyasining mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berib o'tadi va o'quv loyihalarini quyidagicha tasniflaydi [Sharopova, 2019: 239]:

– Axborotli loyihalar maqsadi – muammoga oid ma'lumotlarni to'plash, ularni tahlil qilish, umumlashtirish, mohiyatini yoritish, muammoni hal etish usul va vositalarini tavsiflash, ularning ahamiyatini asoslash. Natijasi – maqola, referat, ma'ruza, keys va b.

– Tadqiqot loyihalar maqsadi – tadqiqotni amalga oshirish, tadqiqot asosida muammo izohini asoslash, kelgusida rivojlanish uchun yangi muammolarni asoslash. Natijasi – hisobot, ma'ruza, keys va b.

– Amaliy loyihalar maqsadi – muammoni hal etish usul va vositalarini ishlab chiqish. Natijasi – harakatlar dasturi, biznes reja, keys, strategiya, tavsiya, ma'lumotnoma to'plami va b.

Yuqorida keltirilgan tasniflarning barchasi nisbiy xarakterga ega bo'lib, o'quv loyihalarini turlarga ajratishda muayyan faoliyat turining boshqalariga nisbatan ustunligi hisobga olingan. O'quvchi berilgan o'quv loyihani bajarish davomida turli vazifalarni amalga oshiradi: axborotlar yig'ish, saralash, tadqiqotchilik, tajriba o'tkazish, taqdimot tayyorlash, ishning natijasiga estetik ishlov berish va hokazo. Y.S.Polatning fikriga ko'ra, har bir loyiha bilan ishlashda ijodkorlik talab qilinganligi uchun har qanday loyihani ijodiy loyiha deb atash mumkin. Loyiha turini aniqlashda qaysi faoliyat turining dominantligiga qaraladi. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, loyihaga asoslangan topshiriqlardan foydalanishda asosiy e'tiborni jarayonni to'g'ri tashkillashtirishga qaratish lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kilpatrick W. H. The project method. The use of the purposeful act in the educative process, 1918. New York: Teachers college, Columbia University. 43 p.
2. Kilpatrick W. H. Foundations of method: informal talks on teaching, 1925. New York: Macmillan. 114 p.
3. Корнетов Г.Б. Метод проектов У.Х.Килпатрика. Часть 2. Особенности метода. *Инновационные проекты и программы в образовании*, №6 2020. С. 19-27.
4. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: учебное пособие для студентов педагогических вузов и системы повышения квалификации педагогических кадров. / Полат Е.С., Бухаркина М.Ю., Моисеева М.В., Петров А.Е. – М.: Издательский центр Академия, 2002. – 272 с.
5. Sharopova Z.F. Ta'lim texnologiyalari. Darslik. – T.: Navro'z, 2019. – 342 b.

### ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKNING SOTSIOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

**Gulshoda Ruziyeva**

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU tayanch doktoranti,  
*gulshoda@mail.ru*

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola sotsiopragmatik tahlilda nutqiy aktlar o'rni, uning turlari va klassifikatsiyasiga bag'ishlangan.

Annotation: This scientific article provides clear information about speech act and its types, their usage in sociopragmatic analysis.